



HISTORICAL ROOTS OF THE DEVELOPMENT OF THE TERM “CIVIL SERVANT”

Makbuba Sottorovna Kholiyarova

senior lecturer, Independent researcher

Law enforcement of the Republic of Uzbekistan making Academy

Institute of Socio-spiritual research

Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: “Avesto“, Abu Rayhon Beruniy, Makhmud Qoshgariy, Abu Nasr Farabi, ”civil service“, ”civil servant“, ”service qualities“.

Received: 26.08.24

Accepted: 28.08.24

Published: 30.08.24

Abstract: Currently, civil servant service activities are important in the activities of law enforcement agencies, which are considered an integral branch of State Management Authority. The study of concepts, terms, terms and references in sources and Related Literature and manuals related to their activities is important in the reform of Public Service Management. This article provides feedback on the classification of views presented in various sources regarding the concepts of “civil service”, “civil service”, “civil service”, “service qualities”, “personnel issues” in historical sources regarding the state and law and other disciplines.

“DAVLAT XIZMATCHISI” TERMINI RIVOJLANISHINING TARIXIY ILDIZLARI

Maxbuba Sottorovna Xoliyarova

katta o‘qituvchi, mustaqil tadqiqotchi

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti

O‘zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: “Avesto“, Abu Rayhon Beruniy, Maxmud Qoshg‘ariy, Abu Nasr Forobiy, “davlat xizmati“, “davlat xizmatchisi“, “fuqarolik xizmati“, “xizmatchi fazilatlarlari”.

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda, davlat boshqaruv hokimiyatini ajralmas bo‘lagi hisoblangan huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida davlat xizmatchisi xizmat faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat xizmati boshqaruvini isloh etishda faoliyati bilan bog‘liq tushunchalar, terminlar, atamalar manbalar va tegishli adabiyot va qo‘llanmalarda keltirilgan ma’lumotlarni

o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada davlat va huquq hamda boshqa fanlarga oid tarixiy manbalarda "davlat xizmati", "davlat xizmatchisi", "fuqarolik xizmati", "xizmatchi fazilatlar", "kadrlar masalasi" kabi tushunchalari borasida turli manbalarda keltirilgan qarashlar tasnifi to'g'risida fikr-mulohazalar bildirilgan.

ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ РАЗВИТИЯ ТЕРМИНА "ГОСУДАРСТВЕННЫЙ СЛУЖАЩИЙ"

Махбуба Сотторовна Холиярова

старший преподаватель, Независимый исследователь

Правоохранительные органы Республики Узбекистан академия делания

Института социально-духовных исследований

Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: "Авеста", Абу Райхан Беруни, Махмуд Кашгари, Абу Наср Фараби, "Государственная служба", "государственный служащий", "гражданская служба", "служебные качества".

Аннотация: В настоящее время служебная деятельность государственного служащего приобретает важное значение в деятельности правоохранительных органов, являющихся неотъемлемым звеном государственной управленческой власти. При реформировании управления Государственной службой важное значение приобретает изучение понятий, терминов, терминов, связанных с деятельностью, содержащихся в источниках и соответствующей литературе и справочниках. В данной статье даны отзывы о классификации взглядов, представленных в различных источниках на такие понятия, как "Государственная служба", "государственный служащий", "гражданская служба", "служебные качества", "кадровый вопрос" в исторических источниках, относящихся к государству и праву и другим наукам.

KIRISH

Yer yuzida odam paydo bo'lgandan boshlab o'zini qurshab turgan olamda yashab qolish uchun birgalikda turmush kechirishadi. Tarixdan bizga ma'lumki, insonlar azal-azaldan oila, urug', jamoa, qabila, qabilalar ittifoqi tufayli ilk davlatchilikning tashkil topishiga sabab bo'lgan. Jumladan, Qadimgi Misr, Mesopotamiya yoki Xitoy kabi qadimiy sivilizatsiyalarda hudud ustidan nazoratni amalga oshiruvchi, soliq yig'ish va resurslarni taqsimlashni amalga oshiruvchi amaldorlardan iborat davlat apparatlari allaqachon mavjud bo'lgani tarix fani izlanishlari natijalarida o'z isbotini topadi. Vaqt o'tgan sari ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi, aholi

sonining ko‘payishi va shaharlarning hududiy kengayishi bilan davlat xizmati yanada rasmiy tus ola boshlaydi. U iyerarxik tashkilotga, muayyan qoidalar va tartiblarga ega, vazifalarni yanada samarali bajarish uchun turli idoralar va bo‘limlarga bo‘linib ketdi.

Tadqiqot ishimizning asosiy elementlaridan bo‘lgan “Davlat xizmatchisi” tyermini **tarixiy ildizlari** va **rivojlanish davrlarini** tadqiq etishga oid mamlakatda boshqaruv sohasida ilmiy izlanishlar hali yetarlicha emas. Shunday bo‘lsa ham, bosqichma-bosqich shakllanib borayotgan o‘zbek davlatchilik tarixiga taalluqli manbalar va davlat xodimi qonuniy asoslariga doir ko‘plab ma’lumotlar mavjud. Mamlakatning bugungi davlatchilik boshqaruvi shakli, tuzulishi, faoliyat turlariga bo‘linishi aynan ushbu manbalar bo‘lgan davlat xizmatining mohiyatini belgilab beruvchi nazariy tushunchalar hamda tarixiy evolyusion jarayonlar ta’sirida shakllangan desak adashmagan bo‘lamiz.

ASOSIY QISM

Dunyoga mashhur Sharqning buyuk mutafakkirlaridan Abu Rayhon Beruniy, Maxmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Sharofiddin Ali Yazdiy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abu Nasr Forobiy [1] kabi mutafakkirlar o‘z asarlarida jamiyat, davlat, davlat boshqaruvi, davlat hukmdori, fuqaro va davlat o‘rtasidagi munosabatlarga oid qarashlar va g‘oyalarini ilgari surgan.

Aynan, ushbu manbalar mazmun mohiyati mukammal o‘rganish davlat xizmati va davlat xizmatchisi tushunchalari to‘g‘risida ilk fikrlarida paydo bo‘lishi va rivojlanishi bilan bog‘liq tarixiy haqiqatni chuqurroq o‘rganish bilimiga ega bo‘lishga yordam beradi.

Davlatchilikning paydo bo‘lishini o‘rganar ekanmiz, o‘sha makonda istiqomat qiluvchi kishilarning barchasiga biriktirilgan vazifalar mavjud bo‘lganiga doir bilimlarga ega bo‘lamiz.

Masalan:

- Oqsoqollar davlat boshqaruviga,
- dehqon va chorvadorlar oziq-ovqat ta’minoti uchun,
- jangchilar esa hudud xavfsizligiga javob berishi kerak bo‘lgan. [2]

Aynan shu davlatda jamiyat a’zolarining farovon hayot kechirishi va davlat boshqaruvi hususida eng qadimiy manbalar biri bo‘lgan Avesto ta’limotida qayd etilganini ko‘rish mumkin.

Sharq davlatchilikni tashkil topishi va rivojlanishi xususida jahon olimlari tomonidan e’tirof etilgan, O‘rta Osiyoda davlatchilikning tashkil topishi, davlat boshqaruvi, pozisiyasi, diniy qarashlari hamda xalqlarning turmush tarzi haqida aniq ma’lumotlarni bizgacha yetib kelishiga xizmat qiluvchi qadimiy manba “Avesto” sanaladi.

Bu to‘g‘risida o‘zbek tarixchi olimlari B.G.Gafurov, A.Asqarov, I.N.P’yankov, A.S.Sa’dullayev, Sh.Shaydullayevlar o‘z tadqiqot ishlarida keltirib o‘tishgan. Ularning fikrlariga

ko‘ra “Avesto” manbasi davlat xizmati, davlat boshqaruvi to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar berilgan noyob manba sifatida qayd etishgan.

Shunday qilib, «Avesto jamiyati» 4 qatlamga bo‘lingan. Ularga:

- oila – nmana,
- urug‘ – vis,
- qabila – zantu,
- mamlakat – dahyuga bo‘linadi. [3]

Jamiyat boshqaruvi ham toifalarga ajratilgan. Birinchi toifa - Kohinlar, Ikkinchi toifa - harbiy sarkardalar, Uchinchi toifa – chorvadorlar, To‘rtinchisi – hunarmandlar toifasiga ajratilgan.

Avesto manbasida keltirilishicha jamiyatda davlat xizmati asosiy roli “xanjamana” hisoblanib, u oliy sudya – “zaratushratema” vakolatiga ega hisoblangan.[4] Bu jamiyatda davlat xizmati faoliyati shoh, bosh vazir (u ayni paytda qo‘mondon), vazirlar, bosh “mu‘bad” (kohinlar sardori), qo‘shin boshliqlari, sarbozlar, olimlar, mudarrislar, tabiblar, ustoz, muallimlar kabi xizmat turlariga ajratilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yuqoridagi davlat xizmatchilari faoliyati davrida bajarishi zarur bo‘lgan faoliyati, majburiyatlari, xuquq va burchlari Avesto jamiyatni boshqarish uchun “Ilohiy Nizom” va “Odil Nizom”ga asoslanib, davlat mahkamalari va jamoat tashkilotlari barcha yo‘nalishlari uchun Nizom talablariga muvofiq tarzda boshqarilgan. “Ilohiy Nizom” talablari «Avesto»ning «Vendidod» va «Xot» daftar (kitob)larida bayon etilgan.[5] “Ilohiy Nizom” larga ko‘ra, odam faoliyatining barcha turlari ezgulik ruhi bilan sug‘orilgan bo‘lishi shart. Ahuramazda odamlarni “ezgu fikrda, ezgu kalomda va ezgu amal”da sustkashlik qilmaslikka da’vat etgan.

E’tiborli jihat bugungi kundagi davlat boshqaruvining asosiy ustuni bo‘lgan qonun ustuvorligiga oid sud huquq normalari «Vendidod»dagi xuquqiy jinoyatlarni quyidagicha tasnif berilgan.

Jumladan:

- Dinga oid jinoyatlar: g‘ayridin bilan nikohga kirishi kohinni haqoratlash, mansabni suiste’mol qilish kabilar;
- Inson hayotiga qarshi jinoyatlar: hujum, tahdid solish, homilani tushirish, ayolga homiladorlik paytida shikast yetkazish kabilar;
- Axloqiy miyorlarni buzishga qaratilgan jinoyatlar: fohishalik bilan shug‘ullanish, nomusga tegish, er-xotindan biring xiyonati, qasddan oila qurmay yurish, belgilangan nikoh qoidalarini qasddan buzish, zino qilish kabi holatlar;
- Mulkga oid jinoyatlar: o‘g‘irlik, qaroqchilik, firibgarlik, talontaroj, bosqinchilik;
- Hayvonlarga qarshi jinoyatlar: uy hayvonlariga, xususan, turli xildagi itlarga qarshi jinoyatlar;

- Tabiatga qarshi jinoyatlar: yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini bilib turib buzish, yerning holatiga qaramaslik, jamoat va shaxsiy gigiyena qoidalarini buzish, bog‘-rog‘, atrof-muhitni muhofaza qilish qoidasiga rioya etmaslik, suvni isrof qilish va boshqalar.

Yuqorida biz sanab o‘tganlardan ko‘rinib turibdiki, **Avestoda** xizmat faoliyatini olib borishda, davlat xizmatida ishlovchi kishilarning ish tartibidan tortib, qilmishi uchun huquqiy asoslarga muvofiq javobgarlik normalari qat’iy nizomlar asosida belgilangan. Ularning nazorati esa hozirgi zamonaviy tilda ayytganimizda davlat xizmati xodimlari tomonidan amalga oshirilgan.

To‘g‘ri, biz yuqorida ko‘rib chiqqan tizim hozirgi demokratiyaning yuqori cho‘qqisiga yetib kelayotgan davlat faoliyati uchun bu davlat xizmati tizimi ancha sodda ko‘rinishi tabiiy albatta. Ammo, biz qonunchilik tartibining falsafiy-huquqiy asoslarini tadqiq etish ilk ildizlari to‘g‘risida tarixiy manbalarning mavjudligi bizdan ularni chuqurroq o‘rganish davlat xizmati sohasi islohotlari davrida ijobiy foydalanish hamda davlat xodimi malakasini shakllantiruvchi muhim elementlarini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Sharqning mashhur jamiyatshunos allomasi Abu Nasr Forobiy ilm fan sohalarining jamiyatshunoslik, falsafa, siyosat va boshqa yo‘nalishlariga katta hissa qo‘shgan. Alloma o‘z asarlarida davlat boshqaruvi haqidagi nazariyalari hamda boshqaruvning samarali turli shakllari to‘g‘risida asoslangan tamoyillari bo‘yicha fikr-mulohazalarini ko‘rsatib aniq ko‘rsatib berganki, ular ayni paytda ham zamonaviy davlatchilik munosabatlarida alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Al-Forobiy nazariyasiga ko‘ra jamiyat farovonligini ta‘minlash uchun bilim, donolik va axloqiy rahbarlik qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak bo‘lgan ideal hukmdor g‘oyasini ilgari surib, hukmdor va xalq o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar haqidagi g‘oyalarni ham ko‘rib chiqib, qaror qabul qilishda adolatli bo‘lish, aholi bilan maslahatlashish muhimligi xususida fikr yuritgan.[6]

Xususan, Al-Forobiy davlat xizmati va davlat xizmatchisiga oid eng mashhur asarlari: “Tanlangan asarlar”, “Fozil odamlar shahri”, “Ideal davlat kitobi”, “Ruh haqida”[7] singari asarlariga sharhlaridagi fikr g‘oyalardan kelib chiqqan holda davlat xizmatini tashkil etishda quyidagilarga e‘tibor qaratiladi:

- *birinchi navbatda*, ta‘lim va malaka;
- *ikkinchi navbatda*, jamiyat manfaati,
- *uchinchi navbatda*, axloqiy tarbiya me‘yorlari;
- *to‘rtinchi navbatda*, adolat va qonun ustuvorligi;
- *beshinchi navbatda*, kasbiy professionallik va tajribaga ega bo‘lgan davlat

xizmatchilari orqali faoliyatni tashkil etilishi davlat boshqaruvining muhim tamoyili sifatda qaragan. Uning yondashuvlaridan ayon bo‘ladiki, davlat xizmatchilarining jamiyat barqarorligi, adolati va farovonligini ta‘minlaydigan element sifatida qaragan.

Davlat xizmatini tashkil etish borasida bilimlarni o'rganar ekanmiz albatta mutafakkir Mahmud Qoshg'ariy izlanishlarida esa siyosiy nazariya va ijtimoiy fanlarga oid "Davlatsozlik va Islom", "Islom va demokratiya", "Siyosat" singari asarlari musulmon dunyosi siyosiy nazariyasiga ta'siri katta.[8] Mahmud Qoshg'ariy asarlarida hukmdor va xizmatchilarda quyidagi xususiyatlar bo'lishi lozim deb hisoblagan.

Ularga quyidagilardan iborat: Zaruriy bilimlar, ko'nikma va tajribaga ega bo'lish, ish samaradorligi, belgilangan vazifalarni bajarishda qat'iyat bilan bajarish, vatanga va kasbiga sodiqlik, ma'suliyatlilik, axloq va huquqiy me'yorlardan chetga chiqmaslik, halollik, diniy qadriyatlar va tamoyillarni faoliyatga moslab qo'llash kabi ma'naviy fazilatlarni qadrlagan va alohida urg'u bergan.

Shuningdek, buyuk alloma Beruniy qarashlarida jamiyat boshqaruviga doir fikrlarga duch kelamiz. Beruniyning "Hindiston" hamda "Qadimgi xalqlar xronologiyasi" [9] asarlarida keltirilgan ma'lumotlarni o'rganish davrida dunyo xalqlar madaniyati, tili, hududi, e'tiqodidan tashqari davlat boshqaruvi, hukmdorlar, hukmdorga xizmat qiluvchi kishilar to'g'risida ma'lumotlarni yozib qoldirgan. U ham o'z g'oyalarida davlat xizmati va boshqaruv masalalariga to'xtalib o'tar ekan, davlat boshqaruv apparati tuzilishi, mansabdor shaxslarning vazifalari xususida fikr yuritgan. Mutafakkir davlat boshqaruvining asoslanishi va samaradorligi oshirishda oqillik, axloq, tabaqalanish, diniy boshqaruv, ta'siri yuqori bo'lishi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

XULOSA

Yuqoridagi tadqiqotlar natijasidan ko'rinib turibdiki, dunyoda davlatchilikning ilk shakllari paydo bo'lishi hamda davlat sifatida shakllanishidan boshlab davlat xizmatchisi uchun ehtiyoj yuzaga kelishi barcha davrlar uchun xos xususiyat va yondashuvlar mavjud. Shuningdek davlatchilik paydo bo'lgan davrdan boshlab davlat xizmatchisi tushunchasi davlat boshqaruv faoliyatining bir bo'lagi sifatida jamiyat boshqaruvini ta'minlash, boshqaruv funksiyalarini bajarish va davlat tuzilmalarida tartibni saqlash zaruriyatidan kelib chiqishi to'g'risidagi xulosalarga ega bo'lamiz. Bundan ayon bo'ladiki, davlat barqarorligi va xalq rozili yo'lida o'tmishda mavjud bo'lgan davlatchilik tamoyillari va qarashlarga doir bilimlardan zamonga moslashtirgan tarzda amaliyotga joriy etish davlat xizmati sohasida sezilarli natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. -T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq madaniy merosi nashriyoti, 1993. -B.34.
2. Mirsodiq Ishoqov tarjimasi. Avesto: Yasht kitobi. -T.: Sharq, 2001, -B.20.

3. Лившиц В.А. Общественно-политический строй Средней Азии // История таджикского народа. -М., 1963. Т.1. С.143-146.
4. Массон В.М. История и археология Средней Азии. -М.: Наука, 1986. С.94-95.
5. Брокгауза и Ефрона «Вендидад». Энциклопедический словарь. –СПб., 1890—1907, -С.86.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq madaniy merosi nashriyoti, 1993. –B. 47.
7. Xayrullayev M. M., Forobiy va uning falsafiy risolalari. -Т., 1963. –В.67.
8. E. Van Donzel, ed (1997). "Al-Kâshgharî" (inglizcha). [*The Encyclopedia of Islam*](#). IV. [Leiden](#)—[New York](#): [E. J. Brill](#)
9. Агеенко Ф. Л. Абу Райхан Мухаммед ибн Ахмед аль-Бируни / / Словарь собственников именованности русского языка. Ударение. Производство. Словоизменение. — М.: Мир и образование; Оникс, 2003. –С.87.